

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 364 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	



KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI

Avazov Ilhom Ravshanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Audit kafedrasi dotsenti, PhD

E-mail: avazovilhom86@gmail.com

ORCID: 0000-0001-8917-6966

Annotatsiya. Ushbu maqolada konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish hamda uning tarkibiga kiruvchi ma'lumotlarni tizimli tarzda investor va foydalanuvchilar uchun foydali bo'lishini ta'minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning o'z vaqtida, tizimli va yaxlit tarzda tuzilishi hamda uni yuqori turuvchi tashkilotga taqdim etishning afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, konsolidatsiyalashgan balans aktivlari, bosh kompaniya, sho'ba jamiyat, uzoq va qisqa muddatli aktivlar, konsolidatsiyalashgan daromad va xarajatlar.

Abstract. This article examines the preparation of consolidated financial statements based on international standards and ensures that the information included in such statements is presented systematically to provide useful insights for investors and users. The paper also highlights the advantages of timely, systematic, and comprehensive preparation of consolidated financial statements and their submission to the parent organization.

Keywords: consolidated financial statements, international financial reporting standards, consolidated balance sheet assets, parent company, subsidiary, long-term and short-term assets, consolidated income and expenses.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы составления консолидированной финансовой отчётности на основе международных стандартов, а также обеспечения системного представления информации, входящей в её состав, с целью повышения её полезности для инвесторов и пользователей. Кроме того, изложены преимущества своевременного, системного и комплексного составления консолидированной финансовой отчётности и её представления вышестоящей организации.

Ключевые слова: консолидированная финансовая отчётность, международные стандарты финансовой отчётности, активы консолидированного баланса, материнская компания, дочернее общество, долгосрочные и краткосрочные активы, консолидированные доходы и расходы.

KIRISH

Bugungi kunda kompaniyalarda moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzishga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib bormoqda. Jahon bozoriga chiqish, xalqaro kreditlarni jalb qilish hamda xorijiy investitsiyalarni kengaytirish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlarning xalqaro normalarga muvofiq bo'lishi zarur. Shu bois, moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MXXS) asosida tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda MXXS asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan kompaniyalar soni izchil oshib bormoqda. Mazkur tendensiya moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda bozor iqtisodiyoti talablariga moslashishning amaliy ifodasidir. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash moliyaviy axborotning sifat xususiyatlarini — ya'ni, ishonchlilik, qiyoslanish imkoniyati, tekshiriluvchanlik, o'z vaqtida taqdim etish va tushunarli bo'lish tamoyillarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Mazkur tamoyillar hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi va tashqi foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologik hujjatlar, ilg'or tajribalar va zamonaviy instrumentlardan foydalanish konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Wang Dong, Yuan Meng, Jun Chen va Yun Ke singari koreyalik tadqiqotchilar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning shaffoflik va ishonchlilik darajasini oshirishga qo'shadigan hissasini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ularning fikricha, konsolidatsiya jarayoni korxona tarkibidagi bo'linmalar moliyaviy holatini yagona ko'rinishda aks ettirib, korporativ boshqaruv samaradorligini oshiradi¹ va investorlar uchun ishonchli axborot manbai vazifasini bajaradi.

Harrison esa konsolidatsiyalashgan noqonuniy emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, bu hisobotlar nafaqat korxonaning moliyaviy ahvolini to'liq yoritadi, balki iqtisodiy tahlillarni kengaytirishga, korporativ barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

S. V. Moderov konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning paydo bo'lishini AQShda sanoat rivojlanishi bilan bog'laydi. Olimning ta'kidlashicha, konsolidatsiya jarayonlari bo'yicha qonunchilik normalarining takomillashtirilishi natijasida holding tuzilmalarini tashkil etish imkoniyati paydo bo'lgan va bu korporativ moliyaviy boshqaruvda yangi² bosqichni boshlab bergan.

N. A. Duvanskaya va O. F. Sverchkova konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining (IFRS) ahamiyatini e'tirof etadi. Ularning tadqiqotlarida zamonaviy bozor sharoitida kompaniyalar xalqaro hisobot tizimlariga moslashishi muhimligi, IFRSga qat'iy rioya qilish mahalliy va xalqaro bozorlar uchun ishonchli hisobotlar yaratishga xizmat qilishi qayd etilgan.³

Kotlyar E. V. va Pushkareva E. M. Rossiya buxgalteriya hisobi standartlari va IFRSni solishtirish asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning qoidalari, usullari va afzalliklarini tahlil qilgan. Ularning ta'rifida, konsolidatsiyalashgan hisobot — bu bosh kompaniya va uning sho'ba korxonalari moliyaviy hisobotlarini yagona tizimda birlashtirishdir. Tadqiqotchilar IFRS moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning universal qoidalari belgilab, ularni global amaliyotda qo'llash imkonini berishini ta'kidlaydi.⁴

N. B. Xo'jabekovning fikriga ko'ra, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot alohida korxonalarning moliyaviy hisobotidan hisob tamoyillari nuqtai nazaridan farqlanadi. Jumladan, aktiv va majburiyatlarni tan olish, ularni baholash, daromad va xarajatlarni aks ettirish tamoyillari konsolidatsiyalashgan hisobotda o'ziga xos tarzda talqin qilinadi va qo'llaniladi.⁵

S. S. Nasretdinovning ilmiy tadqiqotida xalqaro amaliyotda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishning uchta asosiy bosqichi mavjudligi ta'kidlangan. Uning fikricha, har bir mamlakat moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga asoslangan holda milliy xususiyatlarni inobatga olgan tarzda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzilmasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Shu bois, ko'pgina mamlakatlarda vakolatli organlar yoki tegishli vazirliklar tomonidan moliyaviy hisobot tuzilmasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi va qo'llaniladi.⁶

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar — bu bosh kompaniya va uning sho'ba jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarini birlashtirish orqali guruhning umumiy moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini ko'rsatuvchi hisobotlar majmuidir. Konsolidatsiya jarayoni bosh kompaniya tomonidan boshqariladigan barcha sho'ba kompaniyalarning moliyaviy axborotini yagona shaklga keltirishni nazarda tutadi va bu investorlar, kreditorlar hamda boshqa foydalanuvchilar uchun ishonchli axborot taqdim etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishda normativ hujjatlar tahlili, IFRS talablari asosida solishtirma yondashuv, hamda hisobot tarkibiy elementlarini tizimli tahlil qilish usullaridan foydalanadi. Tadqiqot jarayonida aktivlar, majburiyatlar, daromad va xarajatlarni konsolidatsiya qilish tamoyillari xalqaro standartlar talablari bilan solishtirildi va ularning moliyaviy holatga ta'siri baholandi. Mazkur yondashuv konsolidatsiyalashgan hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi va foydalanuvchilar uchun axborot qiymatini aniqlashga xizmat qiladi.

1 Wang Dong, Yuan Meng, Jun Chen, Yun Ke. Business Ethics and Financial Reporting Quality: Evidence from Korea. *Journal of Business Ethics*, 103(3): 403–427.

2 Moderov S. V. Sovmestimaya moliyaviy otchyotnost: logika va texnika postroeniya: dis. na soisk. uchen. step. kand. ekon. nauk. — Sankt-Peterburg, 2013.

3 Nina A. Duvanskaya, Ol'ga F. Sverchkova. Features of Adaptation of International Financial Reporting Standards in the Russian Commercial Organizations. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 2016, 6(S1): 68–73.

4 Котляр Е. В., Пушкарева Е. М. Консолидация финансовой отчетности по рсбу и МСФО. *Бизнес-образование в экономике знаний* 2019 г. №3.

5 Xo'jabekov N. B. Biznesni birlashtirishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish: dis. avtoref. i.f.n. — Toshkent, 2009.

6 Nasretdinov S. S. Konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzishning nazariy va uslubiy masalalari: nomzodlik dissertatsiyasi. — Toshkent, O'zbekiston Bank–moliya akademiyasi, 2005.

TAHLIL VA NATIJALAR

Konsolidatsiyalashgan balans aktivlari kompaniya yoki kompaniyalar guruhining iqtisodiy resurslarini ifoda etadi. Konsolidatsiyalashgan balansda aktivlar butun guruh bo'yicha jamlanadi va o'zaro xo'jalik aloqalari inobatga olingan holda birlashtiriladi. Aktivlar quyidagi asosiy toifalarga bo'linadi:

- Qimmatli qog'ozlar — moliyaviy aktivlar bo'lib, ular mulk huquqi yoki kreditorlik talablari bilan bog'liq qiymatni ifodalaydi. Ular kapitalda ishtirok etish yoki moliyaviy foyda olish maqsadida muomalaga chiqariladi va sotiladi.

- Qisqa muddatli aktivlar — 12 oy ichida pulga aylanishi yoki foydalanilishi kutilayotgan moliyaviy va moddiy resurslar hisoblanadi. Bu aktivlar korxonaning kundalik faoliyatida muhim bo'lib, ularning likvidligi va tezkor qiymatini baholash zarur.

- Uzoq muddatli aktivlar — 12 oydan ortiq muddatga mo'ljallangan moliyaviy va moddiy resurslar bo'lib, ular korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy faoliyatini ta'minlaydi. Ularning asosiy qismi ishlab chiqarish, kapitalni shakllantirish va foyda olishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Uzoq muddatli aktivlar kompaniyaning kelajakdagi iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

- Moddiy aktivlar — jismoniy shaklga ega bo'lgan va korxona faoliyatida foydalaniladigan resurslar bo'lib, ular ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda logistika jarayonlarida ahamiyatlidir. Ushbu aktivlarning samarali boshqarilishi korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Qisqa muddatli debitorlar — kompaniyaning 12 oy ichida qaytarilishi lozim bo'lgan mablag'lar hisoblanadi. Ular korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan bog'liq bo'lib, mijozlar yoki biznes hamkorlar tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlarni aks ettiradi. Ushbu aktivlar to'lovlar qabul qilingach, kompaniyaning naqd pul oqimini oshirish hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Konsolidatsiyalashgan balans majburiyatlari — korxona zimmasidagi boshqa tomonlarga o'tkazilishi mumkin bo'lgan resurslar yoki moliyaviy qarzlarni anglatadi. Konsolidatsiyalashgan hisobotda majburiyatlar butun xo'jalik yurituvchi subyektlar guruhining umumiy majburiyatlari sifatida jamlanadi.

Qisqa muddatli majburiyatlar — kompaniyaning 12 oy ichida to'lanishi lozim bo'lgan qarz va moliyaviy majburiyatlaridir. Ular korxonaning kundalik faoliyatini barqaror moliyalashtirishda muhim o'rin tutadi va balansning "majburiyatlar" bo'limida aks ettiriladi. Qisqa muddatli majburiyatlar tarkibiga, odatda, tovar va xizmatlar uchun yetkazib beruvchilarga to'lanadigan qarzarlar, kreditlar, hisob-kitoblar va boshqa joriy to'lovlar kiradi.

Qisqa muddatli depozitlar — kompaniya tomonidan boshqa tashkilotlardan yoki debitorlardan olinib, bir yil ichida qaytarilishi lozim bo'lgan depozit mablag'laridir. Qisqa muddatli hisob-kitoblar esa kelgusida to'lanishi rejalashtirilgan tadbir yoki xizmatlar bo'yicha qarz majburiyatlarini ifodalaydi.

Uzoq muddatli majburiyatlar — kompaniyaning 12 oydan ortiq muddatda to'lanishi kerak bo'lgan qarz va moliyaviy majburiyatlaridir. Ular korxonaning uzoq muddatli moliyaviy strategiyasini, kapitalni oshirishni va investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ushbu majburiyatlar korxonaning moliyaviy barqarorligi va kelajakdagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Uzoq muddatli soliq va huquqiy majburiyatlar — kompaniyaning soliq to'lovlari hamda yuridik majburiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uzoq muddatda bajarilishi lozim bo'lgan moliyaviy majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Kechiktirilgan majburiyatlar esa kompaniyaning kelgusida, moliyaviy natijalariga qarab, bir necha yildan so'ng to'lanishi mumkin bo'lgan majburiyatlardir.

Qarzlarni qayta moliyalashtirish majburiyatlari — mavjud qarzlarni qayta moliyalashtirish yoki qayta tuzish maqsadida olingan uzoq muddatli mablag'lar hisoblanadi. Ular kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsion loyihalarni moliyalashtirish va kapital bozorlarida faoliyatini kengaytirishga imkon yaratadi.

Umuman olganda, konsolidatsiyalashgan balans xo'jalik yurituvchi subyektlar guruhining moliyaviy holatini aniq, to'liq va ishonchli tarzda aks ettiradi. Aktivlar va majburiyatlarning konsolidatsiya qilingan holda ko'rsatilishi korxona guruhining iqtisodiy salohiyatini baholash, raqobatbardoshligini oshirish va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Konsolidatsiyalashgan daromad va xarajatlar — konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarda ko'rsatiladigan, bir guruh tashkilotlarning umumiy daromadlari va xarajatlarini aks ettiruvchi moliyaviy ko'rsatkichlardir. Konsolidatsiyalashgan hisobotlar guruh kompaniyalarining moliyaviy natijalarini bir butun holda namoyon etadi, bu esa ularning umumiy faoliyatini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Konsolidatsiyalashgan daromad va xarajatlar guruhga kiruvchi korxonalar faoliyatining umumiy natijasini ifodalaydi va guruhning moliyaviy holatini yaxlit ko'rinishda baholashga imkon yaratadi.

Konsolidatsiyalashgan daromadlar — guruh tarkibidagi barcha kompaniyalar tomonidan olingan umumiy daromadlarning yig'indisidir. Ular har bir tashkilotning xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlari asosida shakllanadi va guruh faoliyatining yakuniy natijasini aks ettiradi. Daromadlar quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:



- Sotishdan olingan daromadlar — guruh korxonalarining mahsulot va xizmatlarni realizatsiya qilish natijasida olgan daromatlari.

- Investitsion daromadlar — korxonalarning o'z aktiv va sarmoyalaridan olgan daromatlari. Bunga aksiyalar, obligatsiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy instrumentlar bo'yicha olinadigan foizlar, dividendlari kiradi.

- Litsenziya va royaltlardan daromad — aqliy mulk obyektlarini (patent, litsenziya, dasturiy mahsulotlar va boshqalar) foydalanish uchun taqdim etishdan olinadigan daromadlar.

- Subsidiyalar va davlat grantlari — davlat tomonidan moliyaviy ko'mak sifatida ajratiladigan subsidiyalar va grantlar.

- Ishlab chiqarish va savdo faoliyatidan daromadlar — guruhga kiruvchi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki savdo operatsiyalari orqali olingan foyda.

Konsolidatsiyalashgan xarajatlar — guruh tarkibidagi barcha kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan umumiy xarajatlar majmuidir. Ular quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- Sotilgan mahsulot tannarxi — mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan materiallar, xom ashyo, ish haqi, energiya va boshqa xarajatlar.

- Foyda va zararlar bo'yicha xarajatlar — ishlab chiqarish xarajatlari, ijara, marketing va reklama xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar.

- Ma'muriy va umumxo'jalik xarajatlari — boshqaruv, ofis faoliyati, ish haqi, yuridik va buxgalteriya xizmatlari bo'yicha xarajatlar.

- Foiz xarajatlari — guruh korxonalarining kredit va qarzlar bo'yicha to'lanadigan foizlar.

- Amortizatsiya va eskirish xarajatlari — asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya xarajatlari.

- Soliq to'lovlari — korxona guruhining byudjet oldidagi majburiyatlari, shu jumladan daromad solig'i, QQS va boshqa soliqlar.

Moliyaviy hisobotlarni konsolidatsiya qilishning kontseptual asoslari davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar sektorida muhim ahamiyatga ega. Konsolidatsiya g'oyasi shundan iboratki, agar ikki yoki undan ortiq tashkilot umumiy nazorat ostida bo'lsa, ularning moliyaviy holatini to'liq yoritish maqsadida yagona "guruh korxonasi" sifatida baholanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, quyidagi yo'nalishlarda rivojlanish zarur:

1. Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish;
2. Xalqaro standartlarni qo'llash;
3. Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
4. Axborot texnologiyalarini rivojlantirish.

Konsolidatsiyalashgan daromad va xarajatlar hisobotining ahamiyati shundan iboratki, u korxonalar guruhining umumiy moliyaviy natijalarini aniq va tizimli tarzda aks ettiradi. Bu hisobot kompaniyalar faoliyatining samaradorligini baholash, strategik qarorlar qabul qilish hamda investorlar uchun ishonchli axborot taqdim etish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi metodologiya to'g'ri tanlanishi, xalqaro standartlarga moslashtirilishi hamda soliq siyosati va boshqaruv qarorlarining asoslangan holda qabul qilinishiga bog'liqdir. Ushbu omillar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning ishonchligini, aniqligini va guruh bo'yicha moliyaviy ma'lumotlarning haqqoniy aks etishini ta'minlaydi. Shuningdek, konsolidatsiya jarayoni moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikka erishish, investorlar va manfaatdor tomonlarga ishonchli ma'lumotlar taqdim etish, soliq strategiyasini samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Investorlar, kreditorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar konsolidatsiyalashgan daromad va xarajatlar hisobotini tahlil qilish orqali kompaniyalar guruhining moliyaviy holati va rivojlanish istiqbollarini aniq baholashlari mumkin. Konsolidatsiyalashgan hisobotlar guruhning iqtisodiy barqarorligini, resurslardan oqilona foydalanishni va boshqaruv samaradorligini ko'rsatib beradi. Konsolidatsiyalashgan daromad va xarajatlar hisobotining asosiy maqsadi — guruh faoliyatini bir butun holda aniqlash va ushbu ma'lumotlarni investorlar, moliyaviy tahlilchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlar uchun tushunarli va ishonchli shaklda taqdim etishdir. Bu hisobot kompaniyalar guruhining moliyaviy samaradorligi, daromatlari va xarajatlari bo'yicha aniq tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi hamda strategik qarorlar qabul qilishda muhim axborot manbai vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tae H. Choi. Business Ethics and Financial Reporting Quality: Evidence from Korea. Journal of Business Ethics, 103(3): 403–427.



2. Модеров С. В. Совместимая финансовая отчетность: логика и техника построения: диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Санкт-Петербург, 2013.
3. Nina A. Duvanskaya, Ol'ga F. Sverchkova. Features of Adaptation of International Financial Reporting Standards in the Russian Commercial Organizations. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 2016, 6(S1): 68–73.
4. Котляр Е. В., Пушкарева Е. М. Консолидация финансовой отчетности по РСБУ и МСФО. *Бизнес-образование в экономике знаний*, №3, 2019.
5. Хўжабеков Н. Б. Бизнесни бирлаштиришда консолидациялашган молиявий ҳисоботларни такомиллаштириш: диссертация автореферати. – Тошкент, 2009.
6. Avazov I. Generalization of Audit Results of Consolidated Financial Statements. *International Journal of Management, IT & Engineering*, April–2020.
7. Насретдинов С. С. Консолидациялаштирилган молиявий ҳисобот тузишнинг назарий ва услубий масалалари: номзодлик диссертацияси. – Тошкент, Ўзбекистон Банк–молия академияси, 2005.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100